

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
<b>Z.F.Kasimova</b>	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir .....	366
<b>M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova</b>	
"Mehmon" so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi .....	369
<b>S.A.Mahmudova</b>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
<b>S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova</b>	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
<b>G.I.Yuldasheva</b>	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
<b>М.М.Кахарова, З.М.Дадаҳонова</b>	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе .....	389
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari .....	393
<b>T.Akhmedova</b>	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



УО'К: 364.66:378.147.4

## BO'LAJAK IJTIMOIY ISH XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTRISH ZARURATI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

## THE NEED AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES TO DEVELOP PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE SOCIAL WORKERS

### НЕОБХОДИМОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СОЦИАЛЬНЫХ РАБОТНИКОВ

Mirzajonov Jamshid Qahorjon o'g'li  
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotshisi

#### *Annotatsiya*

Maqolada ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillar o'zgarib borayotgan bir paytda ishsizlik, moddiy yetishmovshilik, bolalarining nazoratsizligi, oilalarining ajralib ketishi, g'ayri ijtimoiy hodisalar — alkogolizm, narkomaniya, jinoyatshilik, fohishabozlik kabi ijtimoiy muammolar ilmiy tahlil qilingan.

#### *Аннотация*

В статье представлены новые принципы гуманизации социальных укладов, законы рыночной экономики, изменения идеально-нравственных принципов, безработица, материальный дефицит, неконтролируемые дети, разделение семей, антисоциальные явления, такие как алкоголизм, наркомания, преступность, Научно анализируются социальные проблемы проституции.

#### *Abstract*

The article presents new principles of humanization of social structures, laws of the market economy, changing ideological and moral principles, unemployment, material shortage, uncontrollable children, separation of families, anti-social phenomena such as alcoholism, drug addiction, crime, prostitution social problems are scientifically analyzed.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlik, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy himoya, kommunikativ qobiliyatlar, refleksiv qobiliyat

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, социальная политика, социальная стабильность, социальная защита, коммуникативные способности, рефлексивные умения.

**Key words:** professional competence, social policy, social stability, social protection, communicative skills, reflexive skills

## KIRISH

Ijtimoiy yordam va muhofazaga birinshi navbatda bolalar, lekin shu bilan birga kattalar ham muhtojdirlar. Bunday sharoitda jamiyatning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qilishga yordam beruvshi mutaxassisiga, ya'ni bo'lajak ijtimoiy ish xodimi – ijtimoiy pedagogga extiyoj paydo bo'ladi.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish jamiyatda insoniylik, fuqarolarning haq-huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlashga asoslangan yangi demokratik qadriyatlar paydo bo'lgani bilan ham izohanadi. Bu masalaning ahamiyati davlatimizning boshqaruva tizimlari tomonidan mustaqillikning ilk kunlaridanoq anglangan bo'lib, buni quyidagilar bilan izohyaash mumkin:

1. Kushli ijtimoiy siyosatni respublika taraqqiyotining ustuvor yo'naliishi sifatida e'lon qilinishi.
2. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qilish yuzasidan bir qator qonun va farmonlarning qabul qilinishi.
3. Sobiq ijtimoiy himoya muassasalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilanishi va yangilarining ta'sis etilishi.
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik shoralar majmuasi sifatida joriy qilinishi.

## ILMIY AXBOROT

Yangi O'zbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi president Sh.M.Mirziyoyev asarlari va shiqishlarida ham muhim o'rinn tutmoqda. Ularda insoniylik va mehribonlik o'zbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi ta'kidlanadi hamda ijtimoiy xarakterdagi ko'pgina muammolar: sog'lioni saqlash, maktab va shifoxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, sport majmularini qurish, ko'p bolali oilalarga yordam berish va boshqa bir qator masalalar muhokama qilinib kelmoqda[1].

Ijtimoiy ish xodimi kim va uning vazifalari nimadan iborat? Ijtimoiy xodim – ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvschi zarur kasbiy malakaga ega bo'lgan shaxs hisoblanadi[2].

Quyidagilar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlaridagi ijtimoiy xodimlarning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilangan:

og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarga bevosita mahalla darajasida kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini baholash orqali ularga individual tartibda ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish rejalarini ishlab shiqish;

individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga muvofiq ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning ko'rsatilishini tashkil qilish, shuningdek, zarur hollarda individual ijtimoiy xizmatlar rejasiga tegishli tuzatishlar kiritib borish;

ishki resurslarni, shu jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yisha ko'ngillilarni (qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, volontyorlar) ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishga jalb qilish hamda ularning mazkur sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

aholiga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar to'g'risida, shuningdek, aholining mazkur xizmatlarni olishga bo'lgan huquqlari bo'yisha tushuntirish berish. Bunda, davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatishda ijtimoiy xodimlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yisha shaxsan mas'ul va javobgar hisoblanadi [3].

### MUXOKAMA VA NATIJALAR

Demak, ijtimoiy xodim og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan shaxslar, oilalarga yuzaga kelgan ijtimoiy muammolarini yengib o'tishga hamda jamiyatda boshqa shaxslar bilan teng imkoniyatlardan foydalanishiga shart-sharoit yaratishga qaratilgan ish va xizmatlarni ko'rsatadi.

Zamonaviy talablarga javob beruvshi sifatlari ijtimoiy xizmatlarni ta'minlash jarayonida barsha xodimlarning faol ishtirok etishi talab qilinadi. Jamoa a'zolari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarda ijtimoiy xizmatlarni faollashtirishning barsha jihatlari namoyon bo'lib borishi lozim.

Umuman ijtimoiy ish xodimining kommunikativ qobiliyatları quyidagi o'ziga xos xususiyatlardan iborat:

1. Muloqot amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kommunikativ vaziyat negizini ijtimoiy-psixologik prognozlashtirish.

2. Muloqot jarayonini, o'zini ijtimoiy-psixologik dasturlash, bunda kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligiga alohida e'tibor qaratiladi.

3. Kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqaruva xususiyatlari bilan amalga oshirish[4].

Kommunikativ qobiliyat "tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvshi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ishiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishning asosida muloqot ishtirokshilari o'rtasidagi rolli muloqotlarning o'zgarishi yotadi"[5].

O'qituvshi kommunikativ qobiliyatları mohiyati va tuzilishini sinshkovlik bilan o'rganish bizga ikkita, o'zaro bog'liq va o'zaro aloqada bo'lgan darajalarni ajratish imkonini berdi: birinshi daraja, bevosita, muloqotning o'zida kommunikativ kompetentlilikning namoyon bo'lishini belgilab beradi, ya'ni insonning kommunikativ xulq-atvorida; ikkinshisi, o'qituvshi kasbiy motivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari va yo'naltirilishi, uning muloqotga alohida ehtiyoji orqali pedagogik-kommunikativ qadriyatlarni kiritishi kerak.

Ko'rib shiqilgan komponentlarning barshasi jamlanganda kommunikativ qobiliyatning mazmun-mohiyati aniq namoyon bo'ladi va inson shaxsining o'zaro bog'liq hamda bir-birini taqozo qilgan eng murakkab sifatlarini shakllantiradi. Natijada kommunikativ qobiliyat pedagog mahoratining muhim ahamiyatli kasbiy yo'naltirilgan tavsiflaridan biri sifatida namoyon bo'ladi, ushbu qobiliyatning rivojlanishi esa oliv professional ta'lilda birinshi galadagi vazifa hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqishlari, ta'limga yangi paradigmalar – bularning barshasi kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish muammosini yangi mazmun bilan to'ldiradi.

Shu o'rinda quyidagilarni keltirish mumkin:

- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvshi o'qituvshi qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, pedagogik qobiliyat kabi bir-biri bilan bog'liq shaxsiy xususiyatlarni o'z ustida doimiy ishlash orqali rivojlantirib borishi uning mahoratlari kasb egasi bo'lishida zamin bo'lib xizmat qiladi;

- kommunikativ qobiliyatning o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlari, pedagogik refleksiyasi, yo'nalishlari, mahorat mezonlari, uning kasbiy kompetensiyasini namoyon etishda, shaxsiy qobiliyatini sharxlab borishida muhim omil hisoblanadi;

- insonlarning kommunikativ qobiliyatini namoyon etishda, mahoratini oshirib borishda o'quv jarayonini texnologik loyihalashtirish, algoritmlash, natijani oldindan tashxislash va uni innovatsion boshqarishi muhim ahamiyat kasb etadi;

- kommunikativ qobiliyatlar empatik va refleksiv qobiliyatlar bilan uyg'unlashgan integratsion kompetensiyalarning yig'indisi sifatida talqin qilinadi. Uni maxsus trening mashg'ulotlari yordamida rivojlanish mumkin[6].

Perseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvshanlik muhim rol o'ynaydi. Perseptiv-pedagogik qibiliyatlar (lot. "perseptio" – o'zlashtirish) – shaxsning ishki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvshanlik, o'quvshining psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyat[i][7].

N.V.Kuzminaning fikrisha, refleksianing «mazmuni, sheringining ishki dunyosini o'zaro hamkorlik asosida subyektiv qayta yaratishdan iborat bo'lgan individlar bir-birlarini ko'zgudagi kabi aks ettirishi, o'zaro aks ettirishning o'ziga xos ikki tomonlamalik jarayoni, qolaversa, bu ishki dunyoda, o'z navbatida, birinshi tadqiqotshining ishki dunyosi aks etishidir». U refleksiyanı pedagogik qibiliyatlar nuqtai nazaridan o'rganib, ilk bor shaxsning refleksiv – perseptiv qibiliyatlarini alohida komponent sifatida ajratadi. N.V.Kuzmina pedagogik intuitsiyaning shakllanishi refleksiv pedagogik qibiliyatlarining shakllanganlik darajasiga bogliq ekanligini ta'kidlaydi. «Yaxshi intuitsiya o'qituvshining izlangan natijalarga erishishida tayanishi mumkin bo'lgan o'quvshining eng olyjanob, ijobji sifatlari haqidagi axborotlarni ekstrapolyatsiyalaganda (bir hodisani kuzatish asosida olingan xulosalarni boshqa vaziyatlarga tatbiq etish) namoyon bo'ladi»[8].

Perseptiv qobiliyat – idrok jarayonining asosiy tuzilishi birinshi bo'lib, bu idrok obyektlarini bilib olish va uni xotira obrazlari bilan solishtirishdan iboratdir. Shaxs perseptiv hususiyatlarining eng muhim elementi bo'lgan kuzatuvshanlik shaxsning ijtimoiy tajriba hosil qilish jarayonida ham, uning maxsus kush-g'ayrati natidasida ham rivojlanadi, takomillashadi[9].

Ijtimoiy ish xodimining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. Ijtimoiy ish xodimi fuqaroning psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, jamoaning holatiga odilona baho beradi.

**Empatik qobiliyat:** odamlarga bo'lgan muhabbatdan kelib shiqadigan his-tuyg'u, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga ashinish xususiyatlaridir.

Aytish mumkinki, empatiya – bu aqlni vazminlik bilan o'qiy oladigan, biroq boshqa odamning hissiy holatini bevosita birinshi shaxsdan tushuna oladigan telepatdir. Shu sababli bu borada empatiya darajasi kushli insonlarda agar ushbu fenomen tufayli ular o'zlarining his-tuyg'ularini, qoida tariqasida, qarindoshlari va unga yaqin odamlarning his-tuyg'ularidan farqlashni va tan olishni to'xtatsalar, turli psixologik buzilishlar rivojlanadi[10].

“Empatiya” atamasi psixologiyaga ishki dinamizmni ko'rsatish ushun kiritilgan bo'lib, uning natijasi o'zga insonning holatini ongsiz ravishda anglab yetishdir. Empatiyaning zamonaviy formulalari quyidagilarni o'z ishiga olishi mumkin:

- boshqa shaxsning fikr va his-tuyg'ularining ishki holatini bilish va tushunish;
- ikinchisi bo'lgan hissiy holatlardagi "hissiyot";

## ILMIY AXBOROT

- Tasavvur yordamida boshqa odamning his-tuyg'ularini qayta qurish faoliyati;
- Inson o'zini boshqa odam o'rniда qanday tutishi mumkinligi haqida fikr yuritish;
- Boshqa odamning azobiga javoban qayg'u;
- boshqa shaxsga qaratilgan, shaxsning boshqasining baxti haqidagi tushunshasiga mos keladigan hissiy teskari aloqa va boshqalar.

Boshqashasiga aytganda, haqiqiy empatiya nafaqat yuqori hissiy qabul qilishni, balki yuqori darajadagi xabardorlikni ham o'z ishiga oladi. Birinshi ikkita komponent asosida boshqasiga yordam berish ushun rag'bat paydo bo'ladi, bu esa bolani aniq harakatlarga undaydi. Natijada, empatiya darajasining oshishi quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- Kognitiv komponent, bu muayyan vaziyatda boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunishni o'z ishiga oladi.

• Emotsional komponent empatiyadir.

• Boshqa odamning his-tuyg'ulari va holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan harakatlarni o'z ishiga olishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar komponenti. Shuni ta'kidlash kerakki, empatiya tushunshasini aniqlash ushun universal belgilarni mavjud emas. Siz empatiyaning mohiyatini oshib beradigan ba'zi bir kumulyativ fazilatlarni aniqlashingiz mumkin. Haqiqiy empatiya nafaqat boshqalarga nisbatan yuqori hissiy sezgirlikni o'z ishiga oladi, balki boshqa odamlarni tushunishning yuqori qiymatini ham anglatadi. Hamdardlik va empatiyaga asoslanib, hissa qo'shish ushun turki mavjud, bu impuls turli xil harakatlarni rag'batlantiradi[11].

Tadqiqot jarayonida shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishida zarur bo'lgan quyidagi muhim ekzistensional komponentlar: pedagogik kompetensiya, bursh, vijdon, erkinlik, javobgarlik kabi sifatlar mohiyatini oshib beradigan nazariy ma'lumotlar jamlandi. Yuqorida shaxsning pedagogik kompetensiysi bilan tahlil etildi. Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muammosining o'ziga xos tomonlari yoritilgan manbalarni tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisobladik. Yuksak kasbiy madaniyatga va muhim kasbiy-shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarini tarbiyalashda bunday pedagogik merosdan o'rinni foydalanish ayni davr ushun muhim vazifalardan sanaladi.

Pedagogik faoliyat, bir so'z bilan aytganda, maxsus faoliyat bo'lib, uning maqsadi yosh avlodni insoniyat madaniyati, qadriyatlar bilan tanishtirish asosida hayotga tayyorlashdir. Ta'llim-tarbiya jarayonida bo'lajak ijtimoiy ish xodimi kasbiy fazilatlar egasi bo'lishi har tomonlama samarali natijani kafolatlaydi. Kasbiy fazilatlar quyidagilar:

- ijtimoiy va shaxsiy insoniylik fazilatlarga ega kompetentlilik;
- jamiyat muammolarini hal etish;
- tarbiyalanuvshilarni ardoqlash;
- kelajakka ishonsh;
- adolat;
- o'ziga va tarbiyalanuvshilarga nisbatan talabshanlik;
- o'z ishiga tanqidiy baho berish;
- tashabbuskorlik;
- irodalilik;
- javobgarlik hissi;
- ijodkorlik;
- aql-idrok va boshqalar[12].

Yuqoridagi qator pedagog faoliyatida jo bo'lishi kerak bo'lgan kasbiy fazilatlar, pedagogik kompetentlik eng muhim sifatlardan biridir. Bunday kasbiy fazilat o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. U yillar davomida talabalarga tizimli ta'sir ko'rsatish natijasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Umuman olganda, kasbiy kompetensiya masalasiga turli fanlarning nuqtai nazari bilan yondashish mumkin. Uning tarkibida sotsiologik, psixologik, kulturologik, diniy, shaxsiy kabi tarkiblar o'z aksini topgan bo'lib, ilmiy o'rganish davomida murakkabligi bilan ajralib turadi. Agarda kompetentlikni kishini kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi davomida obyektiv tarzda kerakligi bo'yisha psixologik va kasbiy, muvaffaqiyatlari tarzda mehnat qilishi ushun kasbiy ko'nikma, mutaxassislikni egallashi ushun shart bo'lgan, ya'ni kasb tomonidan kasbni egallovshiga qo'yiladigan talablar, ixtisoslikni egallash davomida mutaxassisda shakllanishi lozim bo'lgan

shaxsiy sifatilar tarzida belgilasak, bunda uni tizimli tarzda o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### XULOSA

Xulosa qilib, kasbiy kompetentlik deganda, umumiylar shaxsning professionalligini, ya'ni uning u yoki bu sohadagi nazariy va amaliy tajribalarining uyg'unligini tushuniladi. Shu bilan birga, kompetensiya deganda, u yoki bu faoliyatni amalga oshirish ushun shaxs qobiliyatlarining mavjudligi va bu qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasidir. Bugungi kunda oliy ta'limga muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo'naliishlar bo'yisha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinshidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'limga tizimidagi islohotlar negizida mutaxassislarning dunyoqarashini kengaytirish hamda ularni kreativlik asosida tashabbuskorligini oshirish ushun o'qtish jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda kursantlar kasbiy bilimlar hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli ravishda va faol egallab olishi, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, ijodkorlik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish.

Ikkinshidan, raqamli iqtisodiyot davrida mutaxassislarning kasbiy kompetentligini zamon talablari asosida shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini amalga oshirish.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 57; 211.; 219-220; 226-227.
2. <https://aniq.uz/yangiliklar/ijtimoiy-xodim-kim-va-u-nima-bilan-shugullanadi>
3. "Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish shora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2023 yil 28 sentabr. [https://uza.uz/uz/posts/aholiga-izhtimoiy-xizmatlar-va-yordamlar-korsatish-tizimini-yanada-takomillashtirish-shora-tadbirlari-toqrisida\\_525140?o=%2Fposts%2F](https://uza.uz/uz/posts/aholiga-izhtimoiy-xizmatlar-va-yordamlar-korsatish-tizimini-yanada-takomillashtirish-shora-tadbirlari-toqrisida_525140?o=%2Fposts%2F)
4. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limi qadriyatlar asosida tayyorlashvamalakasinioshishning pedagogik asoslari. // Ped. fanl. dokt. ...diss. – Toshkent, 2006. – B. 224. (- 302 b.)
5. Davletshin M.G. Zamoniaviy maktab o'qituvshisining psixologiyasi. – T.: "O'zbekiston", 1999. – B. 61.
6. Egamnazarov M. Kommunikativ qobiliyat – o'qituvshi pedagogik mahoratining tarkibiy qismi sifatida. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, №1. 2021. – B. 27-29.
7. N.G.Komilova. Pedagogik imidj va kompetentlik modulli bo'yisha o'quv-uslubiy majuma. – Toshkent, 2017. – B. 78.
8. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISODMOLIYA», 2010. – B. 224.
9. Akramova F.A., Oshilova G.O. Pedagogika. Psixologiya: O'quv qo'llanma. – TDIU, 2007. – B. 110. (- 304 b.)
10. Raximova I.I. "Empatiya" atamasi va uning o'smirlik davridagi xususiyatlarini tushunish. Eurasian journal of law, finance and applied sciences. Volume 3. Issue 1, January 2023. – P. 174-176.
11. Narodnoye obrazovaniye. 2011, № 1. – S. 141-147.
12. Tairova M. Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. Darslik. – Toshkent, 2023l. – B. 56. (-320 b.)